

## МАКТАБГАЧА YOSHIDAGI BOLALARНИ EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYA MUHITIDA TABIATGA MUHABBAT RUHIDA TARBIYALASH

Suyunova Matluba Abdusaidovna,

Termiz davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi

Ibodullayeva Mavluda

TerduPi Maktabgacha ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi yo'nalishi 2-bosqich  
talabasi

**Annotatsiya:** Uzlusiz ta'limning boshlang'ich bo'limi bu maktabgacha ta'lim sohasi sanaladi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarda biz ekologik madaniyatni shakllantirib borishimiz lozim. Bugungi kunda insoniyatning tabiatdan noto 'g'ri foydalanishi oqibatida tabiatda turli xil salbiy jarayonlarni kuzatyapmiz. Bunday holatlarning oldini olish uchun eng avvalo yosh avlodning ekologik madaniyatini oshirishimiz kerak. Ekologik tarbiyalash tarbiyalanuvchilarda tabiatni muntazam kuzatib borishga qiziqishni uyg'otadi, tabiatni himoya qilish uchun kurashishga, uning go'zalligini asrab-avaylashga olib keladi. Maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga atrof-muhit orqali ekologik dunyoqarashni shakllantirishning psixologik-pedagogik va tarbiyaviy jihatlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar va tushunchalar:** ekologik dunyoqarash, maktabgacha ta'lim yoshi, atrof-muhit, savodxonlik, madaniyat, ta'lim va tarbiya, tabiat, ob'ektlar, bioijtimoiy munosabatlar, o'yin faoliyati, hissiy bilish, jamiyat.

## ВОСПИТАНИЕ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНИКОВ В ДУХЕ ЛЮБВИ К ПРИРОДЕ В ЭКОЛОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ И ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

**Резюме.** Сегодня мы наблюдаем различные заболевания в природе из-за неправильного поведения человечества. Чтобы предотвратить подобные заболевания, прежде всего, мы должны соблюдать экологическую культуру молодежи. Отраслью непрерывного образования является дошкольное образование. Для этого необходимо формировать экологическую культуру у детей дошкольной образовательной организации. Это пробуждает у педагогов-экологов стремление к регулярному наблюдению за природой, побуждает к борьбе за охрану природы, сохранение ее красоты. В статье выделена психолого-педагогическая и образовательная среда управления экологическим мировоззрением детей школьного возраста через среду.

**Ключевые слова и понятия:** экологическое мировоззрение, дошкольный возраст, окружающая среда, грамотность, культура, образование и воспитание, природа, объекты, биосоциальные отношения, игровая деятельность, эмоциональное познание, социум.

## EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN IN THE SPIRIT OF LOVE FOR NATURE IN ECOLOGICAL EDUCATION AND EDUCATIONAL ENVIRONMENT

**Summary:** Today, we are observing various diseases in nature due to the wrong behavior of mankind. In order to prevent such diseases, first of all, we must observe the ecological culture of youth. A branch of continuing education is preschool education. For this, we need to form an ecological culture among the children of the preschool educational organization. It awakens the desire to regularly monitor nature in ecologically educated children, leads them to fight for the protection of nature, to preserve its beauty. The article describes the psychological-pedagogical and educational environment of managing the ecological worldview of school-aged children through the environment.

**Keywords and concepts:** ecological outlook, preschool age, environment, literacy, culture, education and upbringing, nature, objects, biosocial relations, game activity, emotional cognition, society.

## KIRISH

Bola o‘z faoliyati jarayonida uni o‘rab turgan tabiiy va antropogen narsa va hodisalar mohiyatini anglab boradi. Bolaning atrof-muhitni hissiy bilish jarayoni o‘z mohiyati va xususiyati bilan bir-biridan shartli farq qiluvchi uch bosqichdan iborat bo‘ladi. Bola shaxsiga xos bo‘lgan barcha psixologik holat va jarayonlar ijtimoiy hayot hamda atrof-muhit ta’sirida vujudga keladi. Zero, hissiy bilish bolaning sezgilariga bevosita ta’sir qilgan tashqi atrof-muhit (tabiat) va uning alohida xossalaring tasvirlar, manzaralar shaklida ongida aks etishidir. Maktabgacha yoshdagи bolalarning fikrashi va hissiyotining yuqoriligi ularda birgalikda qayg‘urish, kechayotgan hodisalarga mansublik hissini keltirib chiqaradi. Shuning uchun bolalarda atrof-muhit hodisalari va odamlarning hatti-harakatlariga qiziqishni ilk bolalik davridan uyg‘otish va ularga nisbatan hissiy-ijobiy munosabatni shakllantirish lozim.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Maktabgacha yoshdagи bolalarda ekologik dunyoqarashni shakllantirishning pedagogik va psixologik jihatlari haqida bir qancha olimlar fikr-mulohazalarini bildirgan. A.N.Nigmatovning mamlakatimizda ekologik ta’lim stixiyali tarzda olib boriladi degan fikri bir jihatdan to‘g‘ri. Ekologik ta’limni bugungi kunda oddiydan murakkabga tomon pog‘onalash, darajalash taqozo etiladi. Ekologik ta’limni tizimlashtirish orqali qayta tashkil etish lozim.

G.O.Komilova ekologik tafakkurni shakllantirishda O‘zbek xalq topishnoqlaridan foydalanish samarali ekanligini ta’kidlaydi. Shuningdek, X.A.Raxmatova tomonidan ekologik - gigiyenik ta’lim o‘rganiladi. Ekologik - gigiyenik ta’lim aniq maqsadga yo‘naltirilgan jarayonlarni, ekologiya, atrof - muhit muhofazasi, inson salomatligi muhofaza qilish borasida bilimlarni o‘quvchilarga yetkazish zarurligi uqtiriladi. Ammo nima sababdan ekologiya va gigiyena tushunchalari birlashtirilganligi tushuntirib berilmaydi.

Maktabgacha yoshdagи bolalar ekologik tarbiyasini qo‘riqxonalar muhitida olib borishning pedagogik asoslarini P.V.Aksanova ko‘rib chiqadi. Olimaning fikriga ko‘ra, atrof - tabiiy muhitini muhofaza qilishga yo‘naltirilgan barcha sayi harakatlar oxir - oqibat ekologik ta’limga borib taqalmoqda.

Muhokama.Maktabgacha ta’lim muassasasining pedagogik jarayonida ekologik tarbiyalangan shaxsni shakllantirish quyidagi muammolarni hal qilish orqali amalga oshadi:

1. Bolalarda ekologik ong elementlarini shakllantirish. Bolaning ekologik ong elementlarini egallashi tabiat haqidagi bilimlarning mazmuni va tabiatni bilan belgilanadi. Bu tabiat hodisalarining yetakchi munosabatlarini aks ettiruvchi atrof-muhit mazmuni haqidagi bilim bo'lishi kerak.

2. Tabiatdagi turli tadbirdorda bolalarda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish. Shu bilan birga, bolalar faoliyati ekologik xususiyatga ega bo'lishi kerak. Tabiatdagi real faoliyat jarayonida (tabiat burchagida va sayrlarda hayvonlar va o'simliklarga g'amxo'rlik qilish, atrof-muhitni muhofaza qilish ishlarida ishtirok etish) bolalar tabiatga yaqin bo'lgan o'simliklar va hayvonlar uchun sharoit yaratish qobiliyatini o'zlashtiradilar. Bolalarning salbiy xatti-harakatlarning oqibatlarini oldindan ko'ra bilishi, tabiatda o'zini to'g'ri tutishi, alohida tirik organizmlar va tizimlarning yaxlitligini saqlash ko'nikmalari muhim ahamiyatga ega. Aynan bolalar tomonidan amaliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish tabiatga bo'lgan munosabatni ongli ravishda faollashtiradi.

3. Tabiatga insoniy munosabatni tarbiyalash. Tabiatga munosabat - insonparvarlik, kognitiv, estetik - bolaning olgan bilimlari mazmuni bilan chambarchas bog'liq. Atrof-muhit mazmunini bilish bolalarning tabiatdagi xatti-harakatlari va faoliyatini tartibga soladi va boshqaradi. Tabiatga bo'lgan munosabatni shakllantirishda bolalarning tushunishi mumkin bo'lgan tabiat qonunlari haqidagi bilimlar alohida o'rinni tutadi.

Ekologik madaniyatni shakllantirishning pedagogik jihatdan mos modeli bu- integratsiya faoliyati bo'lib, unda insonning fazilatlari zarur to'liqlik bilan amalga oshiriladi; o'z navbatida, maktabgacha yoshdagagi bolaning ushbu ekologik madaniyatini shakllantirish ko'rsatkichi uning ekologik ta'limi bo'lib, bir qator xususiyatlar bilan belgilanadi:

- tashqi dunyo bilan ekologik jihatdan to'g'ri munosabatda bo'lish normalari va qoidalari o'zlashtirish, ularning muhim qismini odatlarga aylantirish;

- ekologik bilimlarni o'zlashtirish, ularni amaliy qo'llashga e'tibor qaratish zarurati mavjudligi;

- hayvonot va o'simlik dunyosi vakillari bilan muloqot qilish, ularga hamdardlik, odamlarga va tabiatga mehr-oqibat, sezgirlik, rahm-shafqatning namoyon bo'lishi; atrofidagi hamma narsaga ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo'lish;

- estetik tuyg'ularning namoyon bo'lishi, go'zallikni ko'rish va tushunish qobiliyati va ehtiyoji, ijodiy faoliyatda o'zini namoyon qilish zarurati;

- yaqin atrof-muhitning ekologik muammolarini hal qilishda tashabbus ko'rsatish.

Natijalar. Shunday qilib, bolalar bog'chasini tugatgan bolaning ekologik madaniyatini shakllantirish ko'rsatkichlari:

- atrofdagi dunyo ob'ektlariga, odamlarning, o'simliklarning, hayvonlarning yashash sharoitlariga qiziqishning mavjudligi, ularning holatini yaxshi yoki yomon nuqtai nazardan baholash qobiliyati;

- ekologik yo'naltirilgan tadbirdorda ishtirok etish istagi;

- go'zallikka duch kelganda hissiy reaksiya va bolaning o'z his-tuyg'ularini ijodiy shakllarda (hikoya, rasm va boshqalar) etkazishga urinishlari;

- ko'chada, bog'da, o'rmonda va hokazolarda yurish paytida o'zini tutish qoidalariiga rioya qilish;

-muhtoj odamlarga, hayvonlarga va o'simliklarga yordam berishga tayyorlik;  
-atrof-muhitni muhofaza qilish va unga g'amxo'rlik qilish maqsadida xatti-harakatlarini  
va o'z-o'zini nazorat qilishning mavjudligi.

Demak, maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalarni atrof-muhit bilan tanishtirish jarayonida ularning hissiy bilishiga tayanilib ish ko'rildi va shu asosda atrofdagi muhit hamda uning har bir tarkibiy qismining tabiat va inson hayotida tutgan o'rni haqida aniq bog'lanishli misollar keltirilib, tegishli munosabat va madaniyat tarkib toptiriladi. Shuningdek, bolalarning atrof-muhitga mas'uliyatli munosabati qanchalik rivojlanganligini aniqlash maqsadida ularning atrof-muhitda, tabiat qo'ynida, tirik tabiat burchagi yonida o'zini qanday tutishlari kuzatildi, ekologik mazmundagi savollar berib, javoblar olindi. Bolalarning tabiat qo'ynidagi xulq-atvori va faoliyatini kuzatish natijasida shu ma'lum bo'ldiki, ularning ayrimlari eng chiroyli va noyob gulni uzib olishga, hech bir zaruriyatsiz shox-shabbalarni sindirishga, qushlar va boshqa jonivorlarga ozor yetkazishga, gulxan yoqish uchun yosh nihollarni chopib-qirqishga va hokazolarga intiladilar. Ekologik savodxonlik va madaniyat, avvalo, oiladan boshlanadi. Ekologik dunyoqarashni shakllantirishning negizi oiladagi tarbiyaga bevosita bog'liqdir. Agar bu masala oilada to'g'ri yo'lga qo'yilmagan bo'lsa, uni maktablarda, keyingi ta'lif bosqichlarida hamda mehnat jarayonlarida qaror toptirish qiyin bo'ladi.

Xulosa. Ajdodlarimiz bola tarbiyasi masalasiga alohida e'tibor bilan qaraganlar va bu borada ibratli an'analarni vujudga keltirganlar. Bolalar go'daklik chog'laridanoq axloqiy va mehnat tarbiyasini oilada boshlaganlar. Ularda mehnatga muhabbat, atrof-muhitga hurmat, obodonchilik va ko'kalamzorlashtirish tuyg'usui sabot bilan singdirilgan. Masalan, atrofnii ifloslantirmaslik uchun axlatlarni alohida chuqurchalarga tashlash, hojatxonalarini ariq, soy, buloq suvlaridan uzoqroq joyda kovlash, yong'in chiqmasligi chorasi ko'rish, turli ehtiyojlar uchun yashnab turgan daraxtdan emas, balki qurib qolganlaridan foydalanish, nihollarni sindirib, payhon qilmaslik, qushlarni uyasini buzmaslik kabi xatti-harakatlar shakllantirilgan. Oila davrasida farzandlarga «Suvga tuflama, uni iflos qilma, chunki barcha jonivorlar uni ichib bahra oladi», «Gullab turgan mevali daraxtning shoxini sindirma, u meva beradi, uni o'zing iste'mol qilasan», «Pishib yetilmagan uzumni uzma, agar uzsang katta gunoh ish bo'ladi, chunki unda ahli mo'minning nasibasi bor» deb pandu nasihatlar qilganlar. Yuqorida omillar asosida ekologik tarbiyalash tarbiyalanuvchilarda tabiatni muntazam kuzatib borishga qiziqishni uyg'otadi, tabiatni himoya qilish uchun kurashishga, uning go'zalligini asrabavaylashga olib keladi. Tabiatga muhabbatni va unga ehtiyyotkorlik hissini tarbiyalash shaxsda axloqiy belgilarni rivojlantirishga yordam beradi. Natijada, maktabgacha yoshdagi bolalik davrida bolalarning ekologik madaniyati shakllanishi va rivojlanishi sodir bo'ladi va agar ushbu submadaniyat hozirgi vaqtida sifat jihatidan shakllangan bo'lsa, bola butun umri davomida atrofdagi tabiatni sevadi, qadrlaydi va unga g'amxo'rlik qiladi, o'z bilim va ko'nikmalarini keyingi avlodlarga etkazadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” 2020 yil 22 dekabrdagi 802-sonli qaroriga 1-ilova Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat Standarti.

2.“O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladiga davlat talablarini tasdiqlash haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha Ta’lim Vazirining buyrug‘i. Ro‘yxat raqami № 3032. 03.07.2018-y.

3. “Илк қадам” Мактабгача таълим муассасасининг Давлат ўқув дастури Тошкент – 2018 й.

4. Sh.M. Mirziyoyev-“Yangi O‘zbekiston Strategiyasi”-Toshkent-2021. 4. Kayumova.N.M.-“ Maktabgacha pedagogika.” T.: TDPU -2013 y. O‘quv qo‘llanma.

5. Kamilova, G. A, Ro‘zieva Z E, Botirova. Ню А. Maktabgacha talim tashkilotlarida bolalarni ekologik-gigienik tarbiyalash imkoniyatlari. Maktabgacha talim-Maktab- Oliy talim konsepsiysi muammo, yechimlar va istiqbollar xalqaro ilmly-amaliy anjuman materiallarl. Buxoro. 2022 yil. 46-48 betlar.

6.Goncharova E. V. G 65 Maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik tarbiyalash nazariyasi va usullari: oliv pedagogik o‘quv yurtlari talabalari uchun ma’ruzalar kursi. – Nijnevartovsk: Nijnevart. ijtim. universitet. nashriyoti, 2008. - 326 b

7. Turobjonov S. , Tursunov T. , Pulatov X. Oqova suvlarni tozalash texnologiyasi T. : Musiqa, 2010, 256 b. 25. Turobjonov S.M

8. Ergashev A. , Ergashev T. Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish. T. : Yangi asr avlod, 2005, 436 b

9.Qobilov Sh. Ekologiya qonunchiligin buzganlik uchun yuridik javobgarlikni takomillashtirish muammolari. NDA, T, 2002, 22 bet